

## IQTISODIYOTNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ergashev Mirjon Yorqin ug'li

o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston

mirjonergashev@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6384933>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-mart 2022

Ma'qullandi: 10-mart 2022

Chop etildi: 14-mart 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Investitsiya, investitsion  
jozibador, «Beri» indeksi,  
risk, investor.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada iqtisodiyotda investitsion  
jozibadorlikning ahamiyati va unga tasir etuvchi omillar  
tahlil qilingan. Ushbu tahlilda investitsiya muhitini baholash  
jarayonida investitsiyalashning darajalari, investorlarning  
qarashlari va «BERI» indeksi umumiy ko'rib chiqilgan.*

Iqtisodiyotda investitsiyalarning jozibadorligi – bu biznesmenni maxsus joyga jalb qilishga qaratilgan jozibadorlik turlaridan biri. Hudud investitsiyalarini jalb qilish resurslarning mavjudligi, hududlarni boshqarish va ularga investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, ular boshqa hududlardan foyda ko'rishlari va hududning rivojlanishini ta'minlashlari mumkin. Ushbu jozibadorlik ta'rifi bu siklli jarayon deb talqin qiladi, chunki jozibali shahar o'ziga xos maqsadli guruhlarni (turistlar, investorlar va yangi rezidentlar) jalb qilishi va ushlab turishi mumkin, bu yerda jozibadorlik o'z hissasini qo'shadi, bu esa o'z navbatida natijaga ta'sirini ko'rsatadi.

### Materiallar va usullar

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra «BERI» indeksi orqali kapital import qiluvchi mamlakatlardagi investitsiya muhiti tahlil qilinib, investitsiyalarning tavakalchilik darajasi aniqlanadi. Iqtisodiyotga safarbar qilingan

investitsiyalarning samaradorligini baholashda qo'llaniladigan ICOR (incremental capital-output ratio) ko'rsatkichi mamlakatdagi real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashda yordam beradi. Xorijiy investorlar reytingdagi ma'lumotlardan vaqtini tejash maqsadida keng foydalanadilar. Mamlakatning reytingi yuqori yoki pastligi albatta, katta ahamiyat kasb etadi. Lekin shu reytingga kirishning o'zi ham investorlarda ushbu mamlakatga nisbatan u yoki bu darajada ishonch uyg'otadi. "Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hududiy dasturlari samarasini oshirish, uni doimiy monitoring qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan "Hududlarda iqtisodiy rivojlantirish" konsepsiyasini ishlab chiqish kerak"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони




Ўзбекистон Республикасида қулай инвестиция муhitini shakllantirishni yanada takomillashtirish va mamlakat iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish maqsadida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning bozor mexanizmlaridan keng foydalanish, ya'ni investitsiyalarni fond bozori orqali, venchurli moliyalashtirish, lizing, sinditsiyalashtirilgan kreditlar"<sup>2</sup>.

«BERI» indeksi mamlakat soni turli hajmga ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlariga asoslanadi. Har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan ballarning yuqori bo'lishi «barqaror mamlakat»ni anglatadi. Mamlakat to'plagan ball qanchalik past bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash samara keltirmaydi. Yuqorida keltirilgan 2-rasmga asosan, «BERI» indeksiga kirgan.

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 11 апрелдаги «Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-3594-сонли Фармони



**1-rasm. “Xorijiy investitsiyalar uchun xudud jozibadorligini (maftunkorligini) baholashning «BERI» indeksi”<sup>3</sup>**

<sup>3</sup> Эргашева Ш., Узоқов.А. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. – Т.: Иқтисод-Молия, 2008. 37-6.



## Natijalar

Tadqiqotlar natijasida hududlarning xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlarni ko'rsatamiz:

– iqtisodiyotning o'sish salohiyati, yuqori malakali ishchi kuchi, tashqi ta'sirlarga va iqtisodiy pasayishlar;

– shaharichi va shaharlararo (milliy va xalqaro miqyosda) transportning ishonchli aloqalari, shuningdek, iqtisodiyotni kengaytirishni qo'llab-quvvatlaydigan transport tizimlari;

– investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashi uchun shahar investitsiyalarini birinchi o'ringa qo'yish va ko'pgina izchil siyosat yuritish;

– investitsiyalarni rejalashtirish tizimiga javob beradigan yetkazib berishga e'tibor qaratish, investitsiyalar bo'yicha tajribaga ega bo'lgan hududlar guruhiga bo'linadi.

O'zbekistonda ham investitsiya loyihalarni tuzish va moliyalashtirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Investitsiyalar asosida innovatsion imkoniyatlardan foydalanishning asosiy indikatorlarini ilmiy tadqiqot ob'ekti misolida ko'rishimiz mumkin. Xususan, hududning o'zi ma'muriy viloyatlar va tumanlardan tashkil topadi. Masalan, maqolamiz ob'ekti – Buxoro viloyati bu esa, o'z navbatida, ma'muriy tumanlarga bo'linadi. Shu munosabat bilan tumanlarning turli xususiyatlarini hisobga olgan holda tuman statistika bo'linmalari uchun investitsion jozibadorlikni karakterlovchi alohida indikatorlar taklif etamiz.

Viloyat tumanlarining investitsion jozibadorligi indikatorlari:

➤ tuman korxonalar va tashkilotlarida ishlovchilar soni;

➤ tuman tashkilotlari xodimlarining mehnat haqi fondi;

➤ tuman tarmoqlarining asosiy fond qiymati va qoldiq qiymati;

➤ tuman korxonalar va tashkilotlari soni;

➤ tuman asosiy kapitaliga investitsiyalar;

➤ tuman korxonalar va tashkilotlari faoliyatining saldolashtirilgan moliyaviy natijasi;

➤ tumanning iqtisodiy faol aholisi;

➤ tuman bo'yicha ish haqi fondi;

➤ asosiy fond(asosiy va qoldiq summalar)lar summasining korxonalar va tashkilotlar soniga nisbati;

➤ ishlovchilar soning korxonalar va tashkilotlar soniga nisbati;

➤ asosiy kapitalga investitsiyalarning aholi soniga nisbati;

➤ ishlab chiqarish hajmi va ish haqi fondi o'zgarishining nisbati;

➤ asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyaning asosiy fondlar summasiga nisbati;

➤ asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmining tashkilotlar va korxonalar soniga nisbati;

➤ tuman aholisining iqtisodiy faollik darajasi;

➤ rentabellik darajasi (foydaning ishlovchilar soniga nisbati);

➤ tumanda bandlilik darajasi;

➤ tuman iqtisodiyotining fond qaytimi;

➤ asosiy fondning rentabelligi;

➤ asosiy fondning yaroqlilik darajasi

➤ bir tashkilotga ishlab chiqarish hajmi;

➤ bir tashkilotga foyda(zarar) hajmi;

➤ foyda (zarar)ning mahsulot ishlab chiqarish hajmidagi ulushi;

➤ tuman iqtisodiyotining real fond qaytimi (foydaning qoldiq qiymatga nisbati);

➤ tuman fondlarining real rentabelligi;



Tuman rivojlanishining natijaviy ko'rsatkichlari:

- aholi soni va tarkibi;
- foydalanilayotgan uy va xonadonlar;
- korxonalar va tashkilotlardagi ishchilari soni;
- maktab yoshigacha bo'lgan bolalar muassasalarida bolalar soni;
- chakana tovar aylanmasi hajmi;
- pullik xizmatlar hajmi;
- mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari summasi;
- iqtisodiy faol aholi koeffitsienti;
- jon boshiga to'g'ri keladigan tovar aylanmasi hajmi;
- jon boshiga to'g'ri keladigan pullik xizmatlar hajmi;
- jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budjet daromad va xarajatlari.

### Tahlil

Iqtisodiyotda investitsion faoliyatning asosiy maqsadi investitsiyalar asosida innovatsion imkoniyatlardan foydalanishni rivojlantirish va jadallashtirish uchun optimal sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiyalarni kiritishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xarakteri va shakllarini inobatga olish kerak. Investitsion faoliyatning samaradorligi lizing, sug'urta, ilmiy-tadqiqot institutlari, banklar va boshqa tashkilotlarni qamrab olgan investitsion majmua tizimida ta'minlanadi.

Investitsion faoliyatni rivojlantirish va rag'batlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

– lizing faoliyatini faollashtirish, bu esa o'z navbatida moliyaviy mablag'larning yetishmasligini yumshatadi, lizing to'lovlarini belgilangan grafik asosida va

soddalashgan shartnoma va sxemalar bo'yicha amalga oshirish imkonini beradi, davlat va lizing kompaniyalarining o'zaro manfaatlarini yaqinlashtiradi va pirovard natijada tarmoqda tavakkalchilikni pasaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun optimal iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratib beradi; – budjet ssudalarini, investitsion soliq kreditlarini taqdim etish, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash; – imtiyozli soliq to'lovlarini joriy etish; – iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini shakllantirish. O'zbekistonda ham ishlab chiqarishga kapital qabul qilish tizimi yildan-yilga takomillashib bormoqda. Hozirda xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabatda zamonaviy xalqaro xo'jalik aloqalari qoidalariga asoslangan holda qonun va Xususan, xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Yuqoridagi jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ham investitsion loyihalar bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar juda ko'p. Ularning negizida ikkita asosiy omil yotadi: – iqtisodiy barqarorlik; – inflyatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valyuta-so'mning to'lov qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Investitsiya muhitini baholash jarayonida investitsiyalashning risk darajasiga e'tibor qaratish lozim. Investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z tadbirkorlik riskini shunchalik yuqori belgilaydi.





## Xulosa

– Hududning investitsion jozibadorligida iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur, degan fikrga to'la qo'shilgan holda, statistik ko'rsatkichlar tizimi o'rganilayotgan va tahlil qilinayotgan Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini to'liq xarakterlay olishi va ichki xususiyatlarini ochib borishi hamda tashqi aloqalarni baholashi, eng asosiysi, innovatsion-strategik rivojlanishi asosida aholi turmush darajasi va hayot sifati o'sishini ifodalashi kerak, deb hisoblaymiz;

– Hududni investitsion jozibadorligini mantiqiy va huquqiy-mazmuniy tahliliga asoslanib biz innovatsion rivojlanishni innovatsion jarayonni bir qismi, innovatsion jarayon esa – ilmga asoslanib yangi texnologiya va ishlab chiqarish usulini paydo bo'lishi, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishi yaratilgan yoki taklif etilgan yangi texnologiya, texnika va ishlab chiqarish usullarini amaliyotga qo'llagan holda jahonda raqobatdosh mahsulot va xizmatlar taklif etish hamda pirovard natijada aholini turmush va hayot darajasini oshirishdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3594-sonli Farmoni
3. Tendency of developing digital economy in Uzbekistan –A.U.Sherov, M.Y.Ergashev. A.U.Qurbonov
4. Respublikamizning investitsion jozibadorligini ekonometrik tahlili – Ergashuv Mirjon Yorqin o'g'li
5. Hududning investitsion jozibadorligini ifodalovchi statistik indikatorlar tizimi – Ergashuv Mirjon Yorqin o'g'li
6. PANEL DATA REGRESSION MODELS ekonometrik model – Ergashuv Mirjon Yorqin o'g'li
7. Ergasheva Sh., Uzoqov.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 37-b.